E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

QASHQADARYO VILOYATI IJTIMOIY-HUQUQIY JIHATLARI TARIXIGA NAZAR

Samadova Nargiza Muxiddinovna
Tarix fanlari nomzodi, Qarshi innavatsion ta`lim universiteti

Annotatsiya
Mazkur maqolada mamlakatimizning janubiy viloyatlaridan biri bo`lmish Qashqadaryoda huquqiy ong masalalari tendensiyalari, jinoyatchilik hamda huquqiy savodxonlikni o`stirish masalalari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar
Huquqiy ong, madaniyat, qonun, tizim, metod.

KIRISH

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikning mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmonida ham huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy talim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotgani, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha taminlanmaganligi haqida to‘htalib o‘tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Fuqarolarda yuksak huquqiy ongni va huquqiy faolligni ayniqsa bugungi kun yoshlarida huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashish davr talabiga aylanmoqda.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq tasirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligidandir.

Qashqadaryo viloyatida ushbu masalalar alohida e`tiborga molik ekanligi mustaqillikning ilk yillaridanoq ma`lum bo`lib ulgurgandi. 2002 yilda Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanidagi Xo‘janazar mahallasida 9 ta jinoyatchilik, 209 ta huquqbuzarlik, Qurbonov nomli mahallada 15 ta jinoyatchilik, 204 ta huquqbuzarlik, Mirishkor tumanidagi Yangi Mirishkor mahallasida 21 ta jinoyatchilik, 97 ta huquqbuzarlik, Obod qishloq fuqarolar yig‘inida 6 ta jinoyatchilik, 142 ta huquqbuzarlik, Kitob tumanidagi Sevaz qishloq fuqarolar yig‘inida 13 ta jinoyatchilik, 20 ta huquqbuzarlik, Bog‘bon qishloq fuqarolar yig‘inida 4 ta jinoyatchilik, 25 ta huquqbuzarlik holatlari aniqlangan [1].

Masalaning bunday holatda mavjud bo‘lishining sabablaridan biri aholining huquqiy savodsizligi,

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

siyosiy madaniyat darajasining yetishmasligi bo‘lsa, boshqa tomondan, mahalla qo‘mitasi, huquqni muhofaza qilish organlarining hamkorlikdagi ishlari samarasizligi edi.

Bu boradagi tarixiy raqamlarga murojaat etilsa, masalan, 2000 yilda mamlakatda xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatchilik, o‘z joniga qasd qilish, zaharlash, o‘zini-o‘zi osish, yoqish kabi noxush holatlar minaqa viloyatlari bo‘yicha ham mavjud bo‘lib, bu holat ortib borgan. Masalan, jinoyatchilik, jumladan, o‘ziga o‘t qo‘yish holati 1999 yilga nisbatan 162 taga ortib, bu respublika bo‘yicha kamaygan holda jami holatning 25 foizi Qashqadaryo viloyatiga to‘g‘ri keladi.

Diniy ma’rifat va ma’naviy-axlodiy tarbiya masalalari buyicha maslahatchilar joylarda oilalar bilan yaqin muloqotda bulishib. oilalardagi ijtimoiy-ma’ naviy muhitni sog‘lomlashtirish borasida ish olib borishmodda. Maxsus dastur asosida amaliy uchrashuvlar tashkil etilib, uzaro zaruriy ma’lumotlar va tajribalar almashinyapti. Ularning faoliyati, ayniqsa, Qashqadaryo viloyatida samarali tarzda amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyati mahallalarida olib borilgan ijobiy tadbirlar tufayli “Ibratli oila” mavzuida respublida miqyosida ijobiy natijalarga erishildi xamda ular faoliyati umumlashtirildi.

Sog‘lom oilani shakllantirish hamda sog‘lom avlodni voyaga yetkazish masalalari buyicha aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari o‘tkazish, ayollar, o‘smirlar va bolalar sog‘lig‘ini tiklash uchun birlamchi bo‘g‘in shifokorlariga amaliy yordam berish maqsadida Qashqadaryo viloyati xotin-qizlar bo‘limining oylik ish rejasi va hududlarga chiqish jadvaliga asosan mahallalarda uchrashuv va suhbatlar o‘tkazildi. “Sog‘lom ona - sog‘lom bola”, “Sog‘lom farzand - sog‘lom jamiyat poydevori” mavzularida tadbirlar tashkil etildi. Viloyat reproduktiv salomatlik markazi tomonidan intergenetik tug‘ruq oralig‘i mavzuida bukletlar ishlab chidilib, MFY va KVPlariga, FHDYo bulimlariga tardatilgan. Kollej va akademik litsey- larda “Yosh oila quruvchilar maktabi” tashkil etilib, oila mudaddasligi, nikoxgacha tibbiy ko‘rikning mohiyati kabi mavzularda tushuntirish va targ‘ibot ishlari olib borilgan.

Mahallada ma’naviy-huquqiy, tarbiyaviy va madaniy o‘zgarishlaryuzasidan mahalla fuqarolari bilan doimiy ishlash, ayniqsa oilalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, dissertatsiyada mahalladagi yoshlar bilan ishlash komissiyalari faoliyatiga ham e’tibor qaratildi. “Fuqarolar yig‘inlari huzurida Yoshlar bilan ishlash komissiyasi faoliyati to‘g‘risida” gi Nizomga asosan Fuqarolar yig‘inlari huzurida “Yoshlar bilan ishlash komissiyalari tashkil etildi” Respublikamizdagi barcha fuqarolar yig‘inlari huzurida

«Yoshlar bilan ishlash komissiyalari» tarkibiga asosan 60 yoshdan oshgan katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan fuqarolarjalb etildi natiyjada, bu komissiyalar faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishga erishildi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib jamiyatimizda bugungi kunda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni to‘g‘ri shakllantira olish va qonunlarimizga xurmat xissi bilan qarash, fuqarolik jamiyatining asosiy mezoni bo‘lmish o‘zgalarning huquqlarini ham poymol qilmaslik, adolatli jamiyatni barpo etish va bunda qonun ustuvorligini ta’minlay olish biz fuqarolardan yuksak huquqiy madaniyatimizni talab qiladi. Huquqiy madaniyatni oshirishda esa har bir fuqaro joriy etilgan qonunlarimiz doirasida harakatni amalga oshirsa, qonunlarimiz buzilishiga yo‘l quymasa va buni atrofdagilar ham o‘rgata olsa dolzarb muammo bo‘lib kelayotgan huquqiy madaniyatning ayrim jihatlariga erishgan bo‘lardik.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

takomillashtirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati” tugrisidagi k,onuni.
3. Qashqadaryo viloyati “Mahalla” jamg‘armasining joriy arxivi. Qashqadaryo viloyati “Mahalla” jamg‘armasining ish hisoboti. 2012.-B.4.
4. Saidov A.X., Tadjixanov U., Toshqulov J.O‘. Mustaqillik va huquqiy mafkura. T., 2005.

WORDLY
KNOWLEDGE